

O‘ZBEK TILIDA TAKROR SO‘ZLARNING TURLARI VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Namozova Mohichehra Rustamovna

Termiz davlat universiteti Termiz, O‘zbekiston

E-mail: jahongirturayev94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnda qo‘llaniladigan takror usullarining asosiy turlari — simmetrik, anaforik va epiforik takrorning shakllanish xususiyatlari, ularning uslubiy va semantik vazifalari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Har bir takror turi misollar asosida yoritilib, ular badiiy matn ifoda vositasi sifatidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: takror, stilistika, anafora, epifora, simmetriklik, ekspressivlik, badiiy uslub.

Adabiy tilning badiiy ifoda imkoniyatlari doirasida takror usuli muhim stilistik vositalardan biri hisoblanadi. Takrorlar badiiy matnga emotsional ta’sirchanlik, mazmuniy aniqlik va estetik tuyg‘ularni uyg‘otish xususiyatlarini beradi. Takror so‘zlarga qiziqish juda qadim davrlarga borib taqaladi. Tadqiqotlardan ma’lumki, reduplikatsiya hodisasiga olimlar til muammolariga e’tibor bera boshlagan paytdan buyon qiziqish bildirganlar. Yunon, lotin, sanskrit va qadimgi german tillarida ko‘plab reduplikatsiya hodisalari kuzatilgan. Reduplikatsiya hodisasi periferik hodisa sifatida qaralgan. “Takroriy so‘z”, “takroriy shakl” tushunchalari tilshunoslikda reduplikatsiya nomi bilan atalib, lotincha reduplicatio – ikkilanish, qo‘shoqlanish ma’nosini bildiradi va tilda so‘zlarning dastlabki bo‘g‘inini, o‘zakni yoki so‘zning butun qismini takrorlashdagi fonomorfologik hodisa hisoblanadi.[1,128]

Takror haqida gap borar ekan, lug‘aviy - nutqiy hodisa bo‘lgan takroriy so‘zni badiiy adabiyotdagi takroriy san’atlardan farqlash lozim bo‘ladi. Takroriy so‘z leksema harakteriga ega bo‘lib asosan, nominativ vazifa bajaradi va nutqda biron-bir voqea-hodisa, harakatning miqdoriy ko‘pligini anglatib keladi. Masalan: ishlay-ishlay charchadi, kula- kula gapirib berdi kabi. Takroriy so‘z bilan takrorlash usuli kommunikativ vazifasi, ma’no va strukturasi, matnda qo‘llanish xususiyatlari bilan farqlanadi. Takroriy so‘zda leksema, ya’ni bitta so‘z yonma-yon takrorlanadi.

Takroriy so‘z aynan bir so‘zning ikki bor talaffuz qilinishidan yuzaga keladi, bunday so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yiladi, talaffuzda yengil to‘xtam bilan ajratiladi. Takroriy so‘z ham badiiy tilda ma’lum uslubiy vazifa bajaradi.

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”da: “Badiiy nutqqa xos kompozitsion-sintaktik ifoda usullaridan biri – ayrim tovushlarni, bir yoki bir necha so‘zni yoki so‘z birikmalarini, ba’zan esa ma’lum satrni atayin takrorlash orqali fikr yoki his-tuyg‘uni ifodalashga, uning ta’sir kuchini oshirishga va turli intonasiyalarni bo‘rttirib ko‘rsatishga imkon beradigan stilistik usul”, [2,235]– deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda, takroriy birliklar badiiy nutqning ohangdorligini ta’minlovchi poetik hodisa hisoblanadi. Boshqa bir lug‘atda esa takror quyidagicha izohlanadi: “matniy, kompozitsion yoki tematik

birliklarning ma'lum badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlagan holda takrorlanishi, badiiy matn va asar kompozitsion qurilishiga xos shunday usullarning umumiy nomi. Takror badiiy asarning turli sathlarida kuzatiladi. Jumladan: a) badiiy nutqda: fonetik (alliteratsiya, assonans, fonetik anafora, ishtiyoq), leksik (so'z takrori, klimaks, anafora, epifora, anadiplosis va boshqalar), semantik (gradatsiya, ma'no takrori), sintaktik (sintaktik parallelizm, xiazm); ritmik birliklarning o'lchov asosida tartibli takrorlanishi: turoq (rukn), misra (yoki bahr), band; v) she'r kompozitsion darajasida, misra takrori, band takrori; g) obrazli-tematik takrorlar (tematik parallelizm, motiv)" matnning butun holda saqlanishi, uning tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazilishida takrorlar muhim vosita sanaladi. Takrorlanuvchi birliklar badiiy asarda bir necha vazifani bajarishga moslashgan bo'ladi. Estetik vazifa bu vazifalarning eng asosiylaridan biridir. Nutqda gaplarning takroriy qo'llanishi uslubiy g'alizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq muallifning maqsadini ta'sirchan ifodalashda bunday takrorlarga ehtiyoj seziladi va ular badiiy matndagi tasviriyy vositalar sifatida har doim tadqiqotchilar e'tiborida turadi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika bo'yicha qilingan ishlar ko'zdan kechirilganda, deyarli ularning barchasida takror tasviriyy vositasiga murojaat qilinganligi kuzatish mumkin.[3,58]

Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta'sirchanligi ortadi. Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: fonetik takror, leksik-semantik va grammatik takror. Fonetik takror deganda tovushlarning matn tarkibida alohida maqsad bilan takrorlanishi tushuniladi. Grammatik takrorda esa so'z birikmasi va gaplarning takrorlanishi tushuniladi.

Takror turlaridan anafora, epifora, simmetrik takrorlar tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqatayi nazaridan o'rganilgan. Xususan, anafora, epifora va simmetrik takrorlar matnda muayyan g'oyani kuchaytirish, ohangdorlikni oshirish va obrazlilikni ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Badiiy asarda qo'llangan til birliklari boshqa uslublarga nisbatan uslubiy vazifa bajarish, emotsional-ekspressivlikligi bilan ajralib turadi. Takror adabiyot fani nuqtai nazaridan o'rganilsa ham, tilshunoslikda ham o'rganilishi kam sonli tadqiqotlarda uchraydi. O'zbek tilining izohli lug'atida takror arabcha tildan olingan bo'lib, birinchi berilishida "qaytariq, matndagi takrorlar" ma'nosida, ikkinchi berilishida "ikkinchi yoki ko'p marta; yana, qayta-qayta ma'nosida izohlab ketilgan.

Anafora -bu gap yoki misralar boshi bir xil so'z yoki ibora bilan boshlanishi orqali yuzaga keladigan takror turidir. Bu usul matnda g'oya birligini ta'minlash, muayyan tushunchani urg'ulash uchun xizmat qiladi. Anaforik takror turlari she'riy asarlar bilan birgalikda badiiy asarlarda ham uchraydi va fikrning ta'sirchanligini orttiradi. Masalan: Sen menga kerak. Sen menga yordam berasan. Sen menga ishonch bag'ishlaysan kabi.

Epifora - bu gap yoki misra oxirida bir xil so'z yoki iboraning takrorlanishidir. Epifora orqali aytilgan fikrning yakuniy urg'usi kuchayadi,

muallif pozitsiyasi mustahkamlanadi. Masalan, **Men seni sevaman, hayot seni sevadi, tabiat seni sevadi.**

Simmetrik takror -matnning boshi va oxirida bir xil soʻz yoki iboraning qoʻllanishi orqali hosil boʻladi. Bunda bir tovush, qoʻshimcha, soʻz yoki soʻz birikmasi jumla yoki satrning bir xil oʻrnida takrorlanadi. Asosan, boshda, oʻrtada va satr soʻngida kelib ohang butunligini taʼminlaydi: **Bunday takror usuli struktura va mazmunda muvozanat, yopiq kompozitsiya yaratadi.** Bu takrorlash usullari sheʼriyat, nutq va yozma matnlarda stilistik vosita sifatida ishlatiladi.

Dastlab, takrorlanuvchi birlikning tarkibiga koʻra oʻzgarishli va oʻzgarishsiz takrorlarni farqlab olishimiz kerak. Bu takrorning barcha koʻrinishlari uchun taalluqli xususiyat hisoblanadi. Takrorlar qoʻllanish oʻrniga koʻra gorizontaal va vertikal takrorlarga boʻlinadi. Bunday takrorlar ayniqsa, sheʼriy matnlarda oʻziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga koʻra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, feʼl takrori kabilarga boʻlinadi. Sintaktik tabiatiga koʻra soʻz birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish oʻrni va oʻrtadagi masofasiga koʻra kontakt (masofasiz, yaqin oʻrinli), distant (masofali, uzoq oʻrinli) takrorlarga ajratiladi.[4,380.]

Nasriy asarlar tilidagi oʻz oʻrnida ishlatilgan takroriy birliklar matnni shakllantiruvchi vosita sifatida alohida badiiy-estetik mohiyat kasb etadi. Takrorlanuvchi har bitta birlik badiiy asarda bir necha vazifani bajarishga moslashgan. Estetik vazifa bu vazifalarning eng asosiylaridan biri hisoblanadi

Badiiy matnda takrorning fonetik, morfemik, leksik va sintaktik koʻrinishlaridan keng foydalaniladi. Takrorlanuvchi birliklarning aksariyati tez va oson idrok etiladi hamda oʻzaro qulay aloqalantiriladi. Ammo shunday takrorlar borki, ularni farqlamoq uchun tinglovchi yoxud kitobxondan jiddiy tayyorgarlik, matn bilan yaqindan tanishganlik talab qilinadi. Ularni koʻra bilmoq uchun tilning shakl va maʼno imkonlarini teran anglamoq talab qilinadi. Aytish mumkinki, til koʻp hollarda takrori maqbul koʻrmaydi. Takrorlanuvchi birliklarga gʻalizlik sababchisi sifatida qaraladi. Badiiy uslubdan boshqa uslublarda takror ifoda gʻalizligini keltirib chiqaradi. Biroq badiiy uslubda takroriy birliklar alohida estetik maqsadga xizmat qiladigan vositaga aylanadi.

Badiiy asarda qoʻllaniladigan takrorlarning ham turi koʻp. Fonetik, morfologik, sintaktik takrorlardan tashqari toʻliq takror, toʻliq boʻlmagan takror, nol koʻrsatkichli yoki yashirin takror, gradatsiyali takror va boshqalar. Manbalarda takrorlarning matndagi oʻrniga koʻra ham turlari mavjudligi aytiladi.[4,380.] Matnda tez koʻriladigan, ijroda darhol idrok etiladigan sodda va aniq takrorlar boʻlganidek, matn strukturasidagi ishtiroki yashirilgan takrorlar ham borki, ularning mavjudligini anglash uchun tinglovchidan yoki kitobxondan biroz tayyorgarlik talab qilinadi. Asardagi bunday takrorlarni idrok etish uchun matn qatlamlari haqida tasavvurga ega boʻlish lozim. Matnning mazmuniy qatlamlari bosqichma-bosqich kuchayib boruvchi

gradatsiyali takror va yashirin takrorlar hisobiga boyib boradi. Shu bois tadqiqotchidan bunday takrorlarni topish va matnning mazmun-mohiyatiga qanday ta'sir o'tkazayotganligini o'rganish talab qilinadi

So'z ustalari til birliklarini mahorat bilan ishlatish orqali tilning ifoda imkonini kengaytirishga o'z hissalarini qo'shadilar. Ko'hna adabiyotimizda so'zlarni farqli shakllarda takrorlash orqali o'ziga xos musiqiylikni hosil qilish keng tarqalgan stilistik an'analardan biri hisoblanadi. Bir satr yoki misrada ot, fe'l, sifat, son va boshqa turkumga oid so'zlarni o'zak yoki qo'shimchali holda takrorlash orqali badiiy nutqning ta'sirchanligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, esda saqlab qolishni qulaylashtiradi. Klassik she'riyatimizda takrorga asoslangan alohida san'atlarning rivojlanganligi fikrimizni dalillaydi.

S.Karimov takrorning o'ttizga yaqin turi mavjudligi haqida quyidagilarni yozadi: "O'zining stilistik imkoniyatlarini chinakam ma'noda badiiy uslubda yuzaga chiqargani bois, adabiy asarlar matnida takrorning, masalan, alliteratsiya, anafora, akromonogramma (epanalipsis, epanafora, anadiplozis), antistrofa, antanaklasa, antonomaziya, antimetabola, assonans, bog'lam, dissonans/konsonans, metabola, naqarot, monorim, pleonazm, rifma, tavgologiya, sharh, epifora, epistrofa, epanod, epanastrofa, qurshab olish, qaytalanish, halqa kabi turlari mavjud".[5,79]

O'zbek tilida takror so'zlar leksik-semantik va grammatik jihatdan rang-barang va murakkab hodisa hisoblanadi. Ular asosan ikki asosli va ko'p asosli shakllarda namoyon bo'lib, turli turlarga ajratiladi: sof takror so'zlar, fonetik o'zgarishga uchragan takrorlar, sinonimik yoki antonimik bog'lanishda kelgan takroriy birliklar va boshqa shakllar. Ushbu birliklar faqat shakl jihatidan emas, balki ma'no jihatidan ham turlicha funksiyalarga ega bo'lib, ular orqali matnda obrazlilik, kuchaytirish, emotsional ifoda va stilistik boyitish kabi vazifalar bajariladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, takror so'zlar o'zbek tilining semantik tizimida muhim o'rin egallaydi va ularning turlari orqali tilning ichki imkoniyatlari va badiiy ifoda kuchi namoyon bo'ladi. Takroriy birliklarning semantik tahlili, ularning sintaktik pozitsiyalari va stilistik funksiyalarini chuqur o'rganish, nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy til madaniyati va badiiy uslubshunoslik uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. – Б.128
2. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изохли луғати. – Т. Ўқитувчи, 1979. – Б.235
3. Шофқоров А. Миртемир шеъриятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол.фан. номз.дисс. автореф. –Тошкент, 2012.-В.58
4. Üstünova Kerime. Dede Korkut Destanları ve Cümleden Büyük Birlikler. Baskı, İstanbul, Alfa.1998.-В. 380
5. Каримов С., Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри. 2016.-Б.78-79